XALQ DEPUTATLARI CHINOZ TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 17 - yanvar VI-59-1-10-144-K/23 Chinoz tuman hokimligi

Chinoz tumanining 2023-yil uchun mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida 2022-yil 22-dekabrda va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatida 27-dekabrda qabul qilingan “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni bilan 2023-yil budjet parametrlari ko‘rsatkichlari tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq hamda xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2023-yil 6-yanvardagi “Toshkent viloyatining 2023-yil uchun mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-67-1-10-0-K/23-sonli qaroriga asosan xalq deputatlari Chinoz tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni, xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2023-yil 6-yanvardagi “Toshkent viloyatining 2023-yil uchun mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-67-1-10-0-K/23-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. 2023-yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlar ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman mahalliy budjetidan 2023-yilgi budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. 2023-yil uchun tuman mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi qaroriga muvofiq tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. Tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfert miqdori 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi belgilansin.

6. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha

kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. 2023-yil uchun tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 1 573 044,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman mahalliy budjetining 2023-yil uchun zaxira jamg‘armasi tasdiqlangan tuman mahalliy budjeti umumiy harajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantiriladi.

Tuman mahalliy budjetini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ajratiladigan budjetlararo transfertlar miqdori oshgan hollarda zaxira jamg‘armasining belgilangan miqdori qayta ko‘rib chiqilmaydi.

Viloyat mahalliy budjetining zaxira jamg‘armasidan mablag‘lar ajratilgan taqdirda ushbu qarorga o‘zgartirishlar kiritilmaydi.

Tuman hokimligi zaxira jamg‘armasi mablag‘lari tuman mahalliy budjetida ko‘zda tutilmagan, kechiktirib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishini ta’minlasin.

8. 2023-yil uchun tuman mahalliy budjetining yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

9. Tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

10. Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

11. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2023-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2023-yilda quyidagi soliq turlari:

a) shahar va tumanlar budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

-jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

-jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

-jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

-qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno);

-davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlaridan tushadigan tushumlar.

b) viloyatning viloyat mahalliy budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

-elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

-yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

-qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va

litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

-qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

-qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek, avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

-qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

-yer uchastkalariga bo‘lgan mulk va ijara huquqini auksion orqali sotishdan kelib tushgan pul mablag‘lari;

-davlat aktivlarini joylashtirish va sotish (xususiylashtirish)dan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar;

-tuman va shahar darajasida bo‘lmagan boshqa daromadlar.

v) viloyat budjeti hamda shahar va tumanlar budjetlari o‘rtasida quyidagi soliq turlari bo‘yicha taqsimlanadi:

-benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

-aylanmadan olinadigan soliq;

-yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

-yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

-suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq bundan mustasno).

Shu bilan birga, Qonunga muvofiq viloyat mahalliy budjetiga ajratma qilinadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) 64 foizi;

-foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) 64 foizi miqdoridagi tushumlar viloyatning viloyat budjeti hamda shahar va tumanlar budjetlari o‘rtasida taqsimlanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

g) Tamaki mahsulotlari, mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2022-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga o‘tkazib beriladi.

Agar qonunchilikda mahalliy budjetlarga o‘tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi

nazarda tutilmagan bo‘lsa, daromadning ushbu turi viloyat budjetiga o‘tkaziladi.

12. O‘zbekiston Ruspublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-409-sonli Qaroriga asosan 2023-moliya yilidan boshlab:

a) «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida «Ochiq budjet» axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanishi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi tuman (shahar)larda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman (shahar)lar Fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

v) tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari uchun tuman (shahar) budjetlarining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so‘m mablag‘ rejalashtirilishi belgilanganligi.

g) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

13. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari v.v.b. (M.Zufarov), tuman Moliya bo‘limi (B.Isroilov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (U.Baxromov) tuman hokimliklari va mas’ul boshqarma va tashkilotlar bilan birgalikda:

- tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

- mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

- budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

- budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

- tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

- budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

14. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (U.Baxromov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

- soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

- yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

- aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga

xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

Xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

15. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (U.Baxromov), Kadastr bo‘limi (J.Kuchkorov) 2023-yildan boshlab yuridik shaxslarning mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

16. Tuman mahalliy budjetida shakllangan qo‘shimcha manbalar xalq deputatlari tuman Kengashi qarorlariga asosan ishlatilishi belgilansin.

Bunda, birinchi navbatda ijtimoiy soha muassasalarning moddiy-texnikasini mustahkamlash, keyingi navbatda ularni kuz-qish mavsumiga tayyorlash, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, qarori, farmoyishi va viloyatga tashrifi davomida berilgan topshiriqlari va kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan yig‘ilish bayonlarida ko‘zda tutilgan tadbirlarga, hududlardagi ichimlik suvi ta’minotini yaxshilash, shaharlar va boshqa aholi punktlarining ko‘chalarini ta’mirlashga yo‘naltirilishi belgilab qo‘yilsin.

17. Tuman hokimligi, choraklar yakuni bo‘yicha mazkur qarorning 1-ilovasida keltirilgan daromadlarning prognoz ko‘rsatkichlari hokimliklarning faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmasa va moliya yili oxirigacha ushbu mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmasa, viloyat hokimligiga xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko‘rilgan choralar bilan birgalikda tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan murojaat qiladi.

18. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (U.Baxromov), Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasi Toshkent mintaqaviy inspeksiyasi hamda tuman hokimligi bilan birgalikda:

- noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

- xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

- noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

19. Majburiy ijro byurosi Chinoz tumani bo‘limi (S.Ibroximov), Tuman davlat soliq inspeksiyasi (U.Baxromov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlarni ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

20**.** Tuman Mahalla va oilani qo‘llab-quvatlash bo‘limi (O.Tojiboyev), tuman hokimligi jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

21. Davlat aktivlarini boshqarish tuman vakili, tuman davlat soliq inspeksiyasi (U.Baxromov), Tuman Moliya bo‘limi (B.Isroilov) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan 2023-yilning 1-iyuliga qadar 2022-yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlarni 2023-yilning 1-sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budjetlarga o‘tkazilishini ta’minlasin.

22. Tuman Irrigatsiya bo‘limi (L.Shamsutdinov) va tuman davlat soliq inspeksiyasi (U.Baxromov) tuman hokimligi bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish choralarini ko‘rsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

23. Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

- mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

- Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

- Mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

24. Tuman hokimligi:

Tuman budjetining jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borsin.

25. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

26. Chinoz tumani hokimligi Axborot xizmati mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini va rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

27. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

28. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining

Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi a’zolari va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari v.v.b. M.Zufarov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **B.Alimbekov**

Xalq deputatlari Chinoz tuman
Kengashining
2023 yil 17 yanvardagi
VI-59-1-10-144-K/23-son qaroriga
1-ilova

ILOVA: 1

Toshkent viloyati Chinoz tuman budjetining 2023-yil daromadlar ko‘rsatkichlari

№	Daromad turi	Jami
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	2 473 029.0
2	Korxonalar aylanmasidan soliq	2 536 146.0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	14 423 557.0
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 410 000.0
5	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	6 978 027.0
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6 024 665.0
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 682 796.0
8	Yuridik shaxslar yer solig‘i	13 197 575.0
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	8 887 656.0
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	1 510 198.0
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 569 666.0
12	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	259 513.0
JAMI		**63 952 828.0**
	Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i tushumlaridan tegishli ravishda o‘tkazib beriladigan daromad	**22 899 424.0**
13	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo	9 263 991.0
14	Mobil aloqa xizmati	3 973 713.0
15	Tamaki mahsulotlari aksiz solig‘i	9 661 720.0
JAMI DAROMAD		**86 852 252.0**

Xalq deputatlari Chinoz tuman
Kengashining
2023 yil 17 yanvardagi
VI-59-1-10-144-K/23-son qaroriga
2-ilova

ILOVA: 2

Toshkent viloyati Chinoz tuman budjetining 2023-yil uchun ajratiladigan xarajatlarning miqdorlari

Ko‘rsatkichlar		Miqdori (ming so‘m)
	XARAJATLAR-JAMI	**166 742 646.0**
1.	**IJTIMOIY SOHA VA AHOLINI IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLAShGA XARAJATLAR - JAMI**	**118 501 164.0**
	shu jumladan:	
1.1	Maorif	21 802 861.0
	- maktabgacha ta’lim	9 211 170.0
	- umumiy ta’lim	12 591 691.0
1.2	Sog‘liqni saqlash	66 113 562.0
	Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar uchun xarajatlar	
1.3	Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari	6 609 601.0
	- madaniyat va ommaviy axborot vositalari	2 449 503.0
	- sport	4 160 098.0
1.4	Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	23 831 535.0
1.5	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	18 400.0
1.6	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	125 205.0
2.	**IQTISODIYOTGA XARAJATLAR**	**14 888 500.0**
	shu jumladan:	
2.1	Fermerlar xo‘jaliklari buxgalteriya markazlari	286 926.0
2.2	Obodonlashtirish	10 599 299.0
2.3	Suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari	1 994 848.0
2.4	Veterinariya qo‘mitasi	1 051 059.0
	Mahalliy budjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	956 368.0
3.	**DAVLAT BOShQARUV ORGANLARINI SAQLASh**	**20 068 330.0**
3.1	Davlat boshqaruv idoralari	20 068 330.0
4.	Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash	3 846 389.0
5.	Zahira jamg‘armasi	1 573 044.0
6.	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	7 865 219.0

Xalq deputatlari Chinoz tuman
Kengashining
2023 yil 17 yanvardagi
VI-59-1-10-144-K/23-son qaroriga
3-ilova

ILOVA: 3

Toshkent viloyati Chinoz tuman budjetiga 2023-yilda viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfert miqdori

Tuman	Summa (ming so‘m)
Chinoz tumani	79 890 394.0

Xalq deputatlari Chinoz tuman
Kengashining
2023 yil 17 yanvardagi
VI-59-1-10-144-K/23-son qaroriga
4-ilova

ILOVA: 4

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha tuman yer solig‘i stavkalari uchun 2023-yilda belgilangan koeffitsientlari

T/r	Tuman va MFYlar nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 Ga uchun		Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun	
		Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2023-yil uchun (ming so‘mda)	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2023-yil uchun (so‘mda)
	Chinoz tumani	**0.90**	**29 700.00**	**1.00**	**297.00**
1	A.Navoiy MFY	1.20	35 640.00	1.20	356.40
2	Amir Temur MFY	0.90	26 730.00	0.75	222.75
3	Afg‘on MFY	1.20	35 640.00	1.20	356.40
4	Axillik MFY	0.90	26 730.00	0.75	222.75
5	Besh kapa MFY	1.20	35 640.00	1.20	356.40
6	Birlik MFY	1.00	29 700.00	0.75	222.75
7	Bog‘bon MFY	1.00	29 700.00	0.90	267.30
8	Bunyodkor MFY	1.20	35 640.00	1.20	356.40
9	G‘ayrat MFY	0.90	26 730.00	0.70	207.90
10	Gulzorobod MFY	1.20	35 640.00	1.00	297.00
11	Dexqonobod MFY	0.90	26 730.00	0.80	237.60
12	Do‘stlik MFY	1.00	29 700.00	0.80	237.60
13	Yovvosh MFY	1.10	32 670.00	0.95	282.15
14	Yollama MFY	1.00	29 700.00	1.00	297.00
15	Yoshlik MFY	1.20	35 640.00	1.20	356.40
16	Islomobod MFY	1.00	29 700.00	0.80	237.60
17	Istiqlol MFY	1.00	29 700.00	0.75	222.75
18	Yo‘ltushgan MFY	1.00	29 700.00	0.95	282.15
19	Kanalobod MFY	0.90	26 730.00	0.70	207.90
20	Kattatepalik MFY	1.10	32 670.00	0.95	282.15
21	Ko‘tarma MFY	1.00	29 700.00	0.95	282.15
22	Qir MFY	1.00	29 700.00	0.95	282.15
23	Qozi MFY	1.20	35 640.00	1.20	356.40
24	Madaniyat MFY	0.85	25 245.00	0.75	222.75
25	Markaziy MFY	1.10	32 670.00	0.95	282.15
26	Mevazor MFY	0.90	26 730.00	0.80	237.60
27	Navro‘z MFY	1.00	29 700.00	0.75	222.75
28	Nafis MFY	1.00	29 700.00	0.95	282.15
29	Obixayot MFY	1.10	32 670.00	0.95	282.15

30	Oydin MFY	1.00	29 700.00	0.95	282.15
31	Ochamayli MFY	1.10	32 670.00	0.95	282.15
32	Paxtaobod MFY	1.20	35 640.00	1.20	356.40
33	Rasulobod MFY	0.90	26 730.00	0.80	237.60
34	Samarqand MFY	0.90	26 730.00	0.75	222.75
35	Sarbozor MFY	1.20	35 640.00	1.20	356.40
36	Soxibkor MFY	1.10	32 670.00	0.95	282.15
37	Sutbuloq MFY	1.00	29 700.00	0.75	222.75
38	Sutchilar MFY	1.00	29 700.00	0.95	282.15
39	Tillaobod MFY	0.90	26 730.00	0.75	222.75
40	Tillatopgan MFY	1.00	29 700.00	0.95	282.15
41	Tinchlik MFY	1.20	35 640.00	1.20	356.40
42	Tong yulduzi MFY	0.90	26 730.00	0.70	207.90
43	Ulug‘vor MFY	1.00	29 700.00	0.95	282.15
44	Usmon Nosir MFY	1.00	29 700.00	0.75	222.75
45	Xamza MFY	1.20	35 640.00	1.20	356.40
46	Xo‘ja MFY	1.20	35 640.00	1.20	356.40
47	Xumo MFY	0.90	26 730.00	0.70	207.90
48	Chin-maschit MFY	1.00	29 700.00	0.95	282.15
49	Chorvador MFY	0.90	26 730.00	0.70	207.90
50	Extirom MFY	1.10	32 670.00	0.95	282.15
51	Eshonobod MFY	1.00	29 700.00	0.75	222.75
52	Yangi maxalla MFY	1.20	35 640.00	1.20	356.40
53	Yangiobod MFY	1.20	35 640.00	1.20	356.40
54	Yangi xayot MFY	1.00	29 700.00	0.95	282.15
55	Yaxshi niyat MFY	0.85	25 245.00	0.75	222.75

Xalq deputatlari Chinoz tuman
Kengashining
2023 yil 17 yanvardagi
VI-59-1-10-144-K/23-son qaroriga
5-ilova

ILOVA: 5

Toshkent viloyati Chinoz tuman budjetida 2023-yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

T/r	Hudud nomi	Miqdor (ming so‘m)
1	Chinoz tumani	974 589.0

Xalq deputatlari Chinoz tuman
Kengashining
2023 yil 17 yanvardagi
VI-59-1-10-144-K/23-son qaroriga
6-ilova

ILOVA: 6

Umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy budjetiga ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

T/R	Tuman nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Aylanmadan olinadigan soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno)
1	Chinoz tumani	30	30	80	80	80	35	100	100

Xalq deputatlari Chinoz tuman
Kengashining
2023 yil 17 yanvardagi
VI-59-1-10-144-K/23-son qaroriga
7-ilova

ILOVA: 7

Yuridik shaxlar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari

T/r	Hudud nomi	Koeffitsient (mutloq miqdor)	Belgilangan qiymat (so‘mda)
1	Chinoz tumani	0.80	800 000.0